

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ТУПРОҚ УНУМДОРЛИГИ ВА ҚИШЛОҚ  
ХЎЖАЛИГИ ЭКИНЛАР ҲОСИЛДОРЛИГИНИ  
ОШИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ-ИННОВАЦИОН  
ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ, МУАММО ВА ЕЧИМЛАР**

**мавзусидаги**

**Республика миқёсидаги илмий-амалий анжуман**

**ТЎПЛАМИ**

**Бухоро, 2021 йил 19-20 ноябрь**

**БУХОРО – 2021**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 2 мартдаги 78-ф сонли фармойиши билан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикасида 2021 йилда халқаро ва республика миқёсида ўтказиладиган илмий ва илмий-техник анжуманлар режаси”да белгиланган тадбирлар ижросини таъминлаш мақсадида 2021 йил 19-20 ноябрь кунлари “Тупроқ унумдорлиги ва қишлоқ хўжалиги экинлар ҳосилдорлигини оширишнинг замонавий-инновацион технологиялари, муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция ўтказилмоқда.

Республика илмий-амалий анжуман тўпламида Тупроқ унумдорлиги ва қишлоқ хўжалиги экинлар ҳосилдорлигини оширишнинг замонавий-инновацион технологиялари, қишлоқ хўжалик экинларини янги ва истиқболли навларини яратиш, ҳосилдорлиги ва сифатини яхшилайдиган замонавий инновацион технологияларни тупроқ унумдорлиги ва мелиоратив ҳолатини яхшилаш ҳамда илғор тажрибаларини қишлоқ хўжалик соҳасида оммалаштиришга бағишланган маърузалар ўз аксини топган.

### **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:**

**Таҳририят ҳайъати:** О.Х.Хамидов, О.С.Қаҳҳоров, Г.Т.Зарипов, Ҳ.Т.Артикова,  
Ф.Х.Жумаев, Р.Юнусов, О.Б.Шарипов, Ш.Ш.Нафетдинов, Ш.Х.Тўхтаев,  
С.М.Назарова, А.А.Илясов, Ҳ.Ҳ.Салимова

Мазкур тўпламга киритилган мақолалар ва маъруза тезисларининг мазмуни, ундаги статистик маълумотлар, меъёрий ҳужжатлар, саналарнинг тўғрилигига ҳамда танқидий фикр-мулоҳазаларга муаллифнинг ўзлари масъулдирлар.

Республикаси Амударё тумани тупроқларининг атрибутив маълумотлар базасини(АМБ) яратиш. Тадқиқот объектида суғориладиган ўтлоқи-тақир, суғориладиган тақир-ўтлоқи, суғориладиган ўтлоқи аллювиал тупроқлар тарқалган. Тадқиқотлар давомида Microsoft Access муҳитида маълумотлар базасини яратиш учун атрибутив маълумотлар тўплаш мақсадида тадқиқот объектини табиий омилларни ландшафтли ёндашиш асосида ўрганиш ва баҳолаш (ўрганилаётган ҳудуднинг жойлашган жойи, геолого-геоморфологик тузилиши, тупроқ ҳосил қилувчи она жинслари, гидрографияси, иқлими, рельефи ва ўсимлиги) режалаштирилган. Шу билан бир қаторда Microsoft Access муҳитида маълумотлар базаси учун ўрганилган ҳудудда тарқалган тупроқларнинг хосса-хусусиятлари бўйича маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш тадқиқотларнинг асосий вазифаларидан биридир. Тадқиқотлар якунида тўпланган ва таҳлил қилинган маълумотлар Microsoft Access муҳитида атрибутив маълумотлар базаси шаклида жамланади ва Ўзбекистон Республикаси адлия вазирлиги ҳузуридаги интеллектуал мулк агентлигига расмийлаштириш учун топширилади.

Тадқиқот объектида тарқалган тупроқларнинг атрибутив маълумотлар базаси (АМБ) ахборотларни структурасига кўра босқичма-босқич классификациялаш, маълумотларни тизимлаш, турли ахборот блокларини умумий параметрларига кўра бирлаштириш имкониятига эга. АМБ Microsoft Access дастурий пакети асосида тузилган бўлиб, шуни инобатга олиш лозимки, Accessда тузилган МБ ArcGIS хотирасида сақланиши ва бошқа лойиҳалар учун ҳам тавсия этилиши мумкин. Тузилган АМБ нинг функционал имкониятлари тупроқларнинг ҳозирги ҳолатини баҳолаш ва сўровни амалга ошириш имкониятларини берувчи маълумотларни тизимлаштиришдан иборат. Яратилган маълумотлар базаси реал маҳсулот сифатида, интеллектуал мулк ҳисобланади.

## **NAV-PAYVANDTAG KOMBINATSIYASI VA KO'CHAT QALINLIGINING INTENSIV OLMA DARAXTLARINING O'SISH, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA'SIRI.**

**R.Yunusov, F.A.Ganieva, N.N.To'raeva, M.N.Abdullaeva**

*Buxoro davlat universiteti*

Oxirgi yillarda O'zbekistonda jadallashtirilgan intensiv mevali bog'lar barpo etilmoqda va bu intensiv pakana olmalarda mevali daraxtlarga ixcham shakl berish va nav-payvandtag kombinatsiyalari, ko'chat qalinligiga hamda navlarning biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda intensiv daraxtlarning o'sishi, rivojlanishi va hosilga kirish qonuniyatlariga alohida e'tibor berilgan holda parvarishlash katta iqtisodiy samaradorlik keltiradi va bu asosiy ko'rsatkichlar so'nggi yillarda mamlakatimizda atroflicha o'rganilmoqda.

Bugungi kunda intensiv olma bog'laridan yuqori hamda sifatli hosil etishtirish bilan birgalikda, yaratilgan yangi intensiv olma bog'larini tezroq, muqim joyga, ya'ni bog'ga o'tkazilgandan so'ng 2-3yilda hosilga kirishini ta'minlash talab qiladi. SHuningdek, intensiv olma bog'larida payvandtagi sekin o'suvchi (M-9), tupi kichik yuqori sifatli hosil beruvchi olma navlarini biologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda navlarni tanlab, ularga bog'da parvarishlash jarayonida yuqori, agrotexnik tadbirlar majmuiy qo'llanilganda, 30-40t/ga muttasil mo'l va sifatli hosil etishtirish imkoniyati yaratiladi.

O'zbekistonda va chet mamlakatlarda olma daraxtlarining shox-shabbalarini kesish usullari va daraxtlarning ham nav-payvandtaglar kombinatsiyasi, ko'chat qalinligini o'sish, rivojlanish va hosildorlikka ta'siri bo'yicha bir guruh tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borib (A.Afanas'ev 1992, I.N.Donika, Dadu2002, R.Yunusov2005,2009,2016, A.U.Aripov,)A.A.Aripov 2013, R.Yunusov, F.A.Ganieva 2020-2021) turli xil tuproq-iqlim sharoitida nav- payvandtaglarning biologik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish asosida turli xil asoslangan ilmiy ma'lumotlar olingan va o'z navbatida, har bir sharoitga mos ilmiy tavsiyalar berilgan. Lekin shuni alohida qayd etish lozimki, bu boradagi bajarilgan tadqiqotlar mevali navlarning biologik xususiyatlari, nav-

payvandtaglar kombinatsiyalari, ko'chat qalinligini intensiv bog'larning o'sish, rivojlanishi va hosildorlikka ta'siri to'liq ochib berish imkoniyatlarini bermaydi.

Tajriba 2020-2021 yillar davomida Buxoro tuman Bog'iKalon MFY hududida joylashgan "SiyovushAgro" bog'dorchilik fermer xo'jaligida olib borildi. Dala tajribasida nav-payvandtaglar kombinatsiyalari hamda ko'chat qalinligini intensiv pakana olma bog'larida olmani Golden Delishes va Goldspur navlari M-9 sekin o'suvchi payvandtakka ulangan daraxtlarni o'sish, rivojlanish va hosildorlikka ta'siri o'rganilgan. Intensiv pakana olma ko'chatlarini 4,0x1,0m;4,0x1,2m; 4,0x1,4m; 4,0x1,6m; 4,0x1,8m va 4,0x2,0m tartibda bog'ga joylashtirilgan. MCHJ hududidagi "SiyovushAgro" bog'dorchilik fermer xo'jaligining iqlimi keskin kontinental bo'lib, bir yilda o'rtacha 225-250 mm yog'ingarchilik bo'ladi, mazkur bog'ning tuprog'i qadimdan sug'oriladigan allyuvial o'tloqi tuproqdir. Fermer xo'jaligining tuproq tarkibiga ozuqa elementlardan boy emas, shuning uchun intensiv pakana olma bog'larida bir yilda 225-250kg/ga azot, 175-200kg/ga fosfor va 45-60kg/ga kaliy o'g'iti sof holda erga kiritiladi. Intensiv pakana olma bog'ida tejamkor tomchilatib sug'orish usuli qo'llaniladi va natijada bir gektar maydonga suv sarfi 2-3 marotaba tejaladi.

Shuni qayd etish lozimki, intensiv olma navlari Goldspur va Golden delishes M-9 – sekin o'suvchi payvandtagga ulanganligi boisi birinchi navbatda nav-payvandtag kombinatsiyalari va ko'chat qalinligi bevosita olma daraxtlarini fitometrik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qiladi, ya'ni daraxtning o'sishi, rivojlanishi va hosil elementlarini 2-3-yildan boshlab shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi. MCHJ "SiyovushAgro" bog'dorchilik fermer xo'jaligida intensiv pakana olma bog'larida olib borilgan tadqiqot daraxtlarni hosilga kirish davrini tezlashtirishga, muttasil mo'l va sifatli hosil olishga yo'naltirilgan. Optimal tanlangan nav-payvandtaglar kombinatsiyalari hamda ko'chat qalinligini intensiv pakana olma daraxtlarining hosilga kirish vaqtiga hamda hosilning hajmi va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Pakana olma daraxti GoldenDelishes va Goldspur navlarining o'sish va hosil berishini tartibga solish, davriyligi bilan kurashish, qishga chidamliligini oshirish ham bevosita nav-payvandtaglarni o'sish kuchiga va ko'chat qalinligiga bog'liqdir.

R.P.Kudryavtsev (1992), Donika, K.V.Dadu (2005), R.YUnusov va boshqalar (2007,2016), R.Yunusov, F.A.Ganievaning (2021) ma'lumotlariga ko'ra pakana, intensiv navlar sekin o'suvchi payvandtaglarga ulangan navlar Goldspur, Fudji, Jeremin, Gala kabi navlarda olma daraxti barglarini fotosintez uchun optimal yorug'lik sharoiti to'liq quyosh radiatsiyasining 55-60% bo'lishi hisoblanadi, bunda pakana daraxt tepasini ko'pgina barglarini yorug'lik bilan ta'minlaydi, yorug'lik esa fotosintez mahmsuldorligini asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, hozirgi innovatsiya texnologiyalari rivojlangan davr tasavvuriga ko'ra, intensiv pakana sekin o'suvchi payvandtaglarga ulangan bog' deb, yosh daraxtlari erta hosilga kirib, har yili mo'l va sifatli, doimiy hosil beradigan, texnika vositalaridan mukammal foydalanish imkoniyati bo'lgan, amal davrida sug'orishda tejamkor tomchilatib sug'orish usuli bilan suv sarfini 2-3marotaba tejaydigan, ishlab chiqarish xarajatlari kam va etishtirilgan mahsulot tannarxi arzon bo'lgan bog' hisoblanadi.

## **QIZILMIYA – RADICES GLYCYRRHIZAE O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI**

**I.J.Sulaymonov, M. A.Azimjonova**

Namangan davlat universiteti

**Qizilmiya- Radices glycyrrhizae** o'simligi tabobatimizda shifobaxshligi jihatidan oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Qizilmiya o'simligi tarkibida saponinlar, uglevodlar, glikozidlar, efir moylari, vitaminlar, alkaloidlar, limon kislotasi va oshlovchi moddalar saqlaydi. Mazkur o'simlikning ildizlaridan tabobatda me'da-ichak xastaliklarida, nafas olish xastaliklarida hamda quruq va nam yo'talda, bronxial astmada pnevmoniyani davolashda foydalaniladi.

Bugungi kunda dunyo bo'ylab ko'plab dorivor moddalar sintez yo'li bilan olinishiga qaramay, tibbiyotda qo'llaniladigan dorivor preparatlarning 40 % ga yaqini o'simliklardan